

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019. Tar.78.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDAXMATOV SHARIFBEK TOSHPO‘LATOVICH

**TERMIZ MUSTAQILLIK YILLARIDA
(ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR, NATIJALAR)**

07.00.01–O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz–2022

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich

Termiz mustaqillik yillarida (islohotlar, muammolar, natijalar).....5

Саидахматов Шарифбек Тошпулатович

Термез в годы независимости (реформы, проблемы, результаты).....23

Saidakhmatov Sharifbek Toshpulatovich

Termez in the years of independence (transformation, problems, results).....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works49

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019. Tar.78.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDAXMATOV SHARIFBEK TOSHPO‘LATOVICH

**TERMIZ MUSTAQILLIK YILLARIDA
(ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR, NATIJALAR)**

07.00.01–O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz–2022

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Tar808 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tersu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali (www.zivonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzayev DJalaliddin Zayniyevich,
tarix fanlari nomzodi, dosent

Rasmiy opponentlar:

Pardayev Toshkentboy Rajabovich,
tarix fanlari doktori, dotsent
Yaqubova Dilaram Tadjiyevna,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Yetakchi tashkilot:

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi, ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019. Tar.78.02 raqamli Ilmiy kengashning 2022-yil "16" "11" kuni soat "10:00" dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino 4-qavat, Majlislar zali). Tel.: (99876) 223-13-11; e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (89 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy). Tel/faks: 03762217690

Dissertatsiya avtoreferati 2022-yil "14" "11" kuni tarqatildi.
(2022-yil "14" "11" dagi "15" raqamli reestr bayonnomasi).


S.N. Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., prof.

H.E. Xolmo'minov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, t.f.a., dots.


E.A. Qatubov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.



KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XX asr oxiri va XXI asrning boshlarida dunyoning turli mintaqalari, hududlari va mamlakatlarida o'ziga xos o'zgarishlar yuz berdi va bu insoniyat tarixida yangi transformatsion taraqqiyot jarayonlarini vujudga keltirdi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili bo'lgan urbanizatsiya jarayonlarining barqaror rivojlanish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shaharlar va shaharliklar sonining ortib borishi, o'ziga xos shahar madaniyatining shakllanishi va yirik megapolislar va aglomeratsiyalarning paydo bo'lishi rivojlangan mamlakatlar taraqqiyotining muhim omili bo'lib qoldi. Urbanizatsiya yangi sifatga o'tib, unda har bir shahar mahalliy darajada ham, global darajada ham alohida o'rin tutadi. Shuning uchun har bir shaharning rivojlanishi jahon hamjamiyati va O'zbekiston darajasida ushbu hodisaning rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda har tomonlama o'rganish, umumlashtirish, ijtimoiy-falsafiy tushunish, tuzatishlarni talab qiladi.

Bugungi kunda ilm-fan rivojlangan mamlakatlardagi ko'plab ilmiy tadqiqot markazlari va ixtisoslashgan ilmiy muassasalarida zamonaviy shahar taraqqiyotining turli masalalari, xususan, shaharsozlik, shaharlar klassifikatsiyasi va tipologiyasi, aholi demografiyasi, migratsiya, urbanizatsiya va aglomeratsiya jarayonlari hamda shaharlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada tarixiy shaharlarning zamonaviy taraqqiyoti masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq O'zbekistonda va jahonda Termiz tarixiga katta e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, uning zamonaviy shahar madaniyati maxsus tadqiqot ob'yekti bo'lmagan. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslab beradi.

Istiqlol yillarida Termiz shahri taraqqiyotida yangi davr boshlandi. YUNESKO sha'feligida "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligini, Termiz shahrining 2500 yillik yubileyining keng nishonlanishi, birinchi Xalqaro baxshichilik san'ati festivalining, "O'zbekiston–sivilizatsiyalar chorrahasi" nomli xalqaro arxeologiya forumining o'tkazilishi shaharning jahon madaniyati taraqqiyotidagi o'rnini yanada kuchaytirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "Mustaqillik yillarida Termiz shahrida qanday katta ishlarni amalga oshirganimiz, ilgari yopiq, chekka va qaroqsiz bir shaharcha bo'lgan bu maskan hozirgi kunda qanday go'zal va zamonaviy shaharga aylanib borayotganligi" haqida alohida takidlab o'tgan¹.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 10-yanvardagi PF-5623-sonli "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining 2019-yil 9-dekabr 2936-III-son "Surxondaryo viloyati Termiz tumanining chegarasini o'zgartirish, Termiz shahrining chegarasini kengaytirish va tasdiqlash to'g'risida" gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 17-iyuldagi 195-sonli "2035-yilgacha

¹Мирзиёев Ш.М. "Буюк келажигимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз". Тошкент(кейингиларда Т.): "Ўзбекистон" НМИУ, 2017. Б.276.

Termiz shahrining bosh rejasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmon va qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" dasturining ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mustaqillik yillarida shaharlar tarixini o'rganishga bo'lgan e'tiborning kuchayishi natijasida Termiz shahri tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilib, monografiyalar va ilmiy-ommabop asarlar chop etildi. Ularning aksariyatida shaharning qadimgi va o'rta asrlar davri tarixi o'rganilgan. Shu bilan birga, mustaqillik yillarida Termizdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotni yoritishga qaratilgan maqolalar chop etildi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Termiz shahrining mustaqillik yillaridagi tarixi mavzusi bo'yicha izlanishlar ikki guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruhga oid adabiyotlarga Termiz shahrining 2500 yillik yubileyini tayyorlash va o'tkazish doirasida chop etilgan ilmiy tadqiqotlar kiradi. Ushbu tadqiqot ishlari asosan, shaharning istiqloq yillaridagi tarixini o'rganishni targ'ib etganligi bilan xarakterlanadi. Yubiley arafasida Termiz tarixiga bag'ishlangan asarlarda, jumladan, M.Azimov va J.Z.Mirzayevning "Termiz tarixi" monografiyalarida, shaharning zamonaviy tarixiga to'xtalib o'tilgan². Termizning 2500 yillik yubileyi doirasida shahar tarixiga bag'ishlangan to'plamlarda shaharning zamonaviy turmush tarziga bag'ishlangan maqolalar nashr etildi³. J.Z.Mirzayev birinchilardan bo'lib, Termiz tarixi o'rganilishi bosqichlarini belgilashda mustaqillik yillarini alohida bosqichga ajratdi. Shu vaqtdan boshlab Termiz tarixining mustaqillik davri tarix fani mavzusi sifatida shakllana boshladi⁴.

Ikkinchi guruh adabiyotlarni Termiz shahrining 2500 yillik yubileyidan keyin amalga oshirilgan tadqiqotlar tashkil etadi. Ular mustaqillik yillarida Termizdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotni chuqur, hamda har tomonlama tadqiq etishga, yutuqlar va mavjud muammolarni aniqlashga qaratilgan. Mazkur tadqiqotlar Janubiy O'zbekiston va Surxondaryo viloyatining istiqloq yillaridagi tarixi doirasida amalga oshirildi. Jumladan, N.C.O'roqova sanoat sohasidagi islohatlarni⁵, M.S.Sohibova madaniyat muammolarini⁶ janubiy viloyatlar misolida tadqiq etdilar. B.S.Rahimov Surxondaryo viloyati misolida mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy

²Azimov M. Termiz tarixi (eng qadimgi davrlardan XXI asr bo'lagacha). Qarshi: "Nasaф", 2001; Jaloliddin Mirzo. Termiz tarixi. –T.: "Шарк", 2001.

³Termiz – buyuk йўللار чорраҳасида кўҳна ва янги шаҳар. – Т.: Шарк, 2001.–Б 110.; Мирзаев Ж.З. Termiz mustaqil Ўзбекистоннинг жанубий дарвозаси // Termiz: tarixiy tadqiqotlar, ilmiy xulosalar.Т.: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти", 2001; Сурхондарё тарих кўзгусида. –Т.: "Шарк", 2001.

⁴Мирзаев Ж.З. Termiz tarixi ўрганилишининг асосий bosqichlari. Termiz shahrining jahon civilizatsiyasida tutgan ўрни. –Т.: "Фан", 2001.

⁵Ўроқова Н.С. Ўзбекистонда mustaqillik davrida sanoat sohasidagi islohotlar va ўзгаришлар жараёни (жанубий viloyatlar misolida). Tarix.fan. nom. diss. avtoreferati. –Т.: ЎЗМУ, 2004.–Б.22 .

⁶Соҳибова М.С. Ўзбекистонда маданий ҳаёт: тажриба ва муаммолар (жанубий viloyatlar misolida). Tarix fan. nom. diss. –Т.: ЎЗМУ, 2008.

hayotni o'rgandi⁷. E.R.Tillayevning dissertatsiyasi janubiy viloyatlar misolida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishga bag'ishlandi⁸. A.S.Tursunov O'zbekistonning janubiy viloyatlaridagi mustaqillik yillaridagi urbanizatsiya jarayonlarini o'rgandi⁹. Mazkur tadqiqotlarda Termiz shahrining istiqloq yillaridagi tarixining ayrim jihatlari yoritilgan. Shuningdek, B.S.Rahimovning nashr etgan monografiyasi tadqiqot mavzuiga qisman mos bo'lib, ayrim masalalar Termiz shahri misolida o'rganilgan¹⁰. Mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan Termiz shahrining eng qadimgi davrlardan hozirgacha bo'lgan tarixiga bag'ishlangan asarda ham zamonaviy tarix sahifalari qisman yoritilgan¹¹.

Ilmiy tadqiqotning amalga oshirishida O'zbekistondagi zamonaviy urbanizatsiya jarayonlariga bag'ishlangan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etdi¹². Ularda mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi vakillarining maqolalari joy olib, urbanizatsiya jarayonlarining turli jihatlari yoritildi.

Yuqorida nomlari keltirilgan adabiyotlar va tadqiqotlar Termiz shahri tarixi, shahardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar, shuningdek, shaharsozlik holatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, qayd etib o'tish lozimki, Termiz shahrining Markaziy Osiyodagi urbanizatsiya jarayonidagi o'rni, mustaqillik yillaridagi tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi, shahar madaniyati taraqqiyoti kabi masalalar hozirga qadar maxsus yoki kompleks tadqiq qilinmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ATD -1 "O'zbekiston davlatchiligi tarixi: munosabatlar va qarashlar" (2015-2021) mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekistonda shahar madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari, zamonaviy o'zgarishlar, ularga ta'sir qilayotgan omillar va muammolarni Termiz shahri tarixi asosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Termizda shahar madaniyati rivojining tarixiy bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish;

urbanizatsiya jarayonini zamonaviy "urbanistik sivilizatsiya" nuqtayi-nazaridan nazariy-metodologik tahlil etish;

Termiz shahrining istiqloq yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini,

⁷Rahimov B.S. Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти (Сурхондарё вилояти мисолида 1991–2005 йиллар). Тарих фан. ном. дисс. – Т.: ЎзМУ, 2008.

⁸Тиллаев Э. Р. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётидаги ўзгаришлар (Жанубий вилоятлар мисолида). Тарих фан. ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Тошкент, 2010.

⁹Турсунов А.С. Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида урбанизация жараёнлари (тарихий таҳлил, 1991-2010 йй.). Тарих фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. –Термиз, 2020.

¹⁰Раҳимов Б.С. Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти (Сурхондарё вилояти мисолида 1991–2018 йиллар).–Тошкент: Yangi nashr, 2019.

¹¹Турсунов С., Қобулов Э., Муртазов Б., Пардаев Т., Умаров И. Термиз тарихи. –Тошкент: Yangi nashr, 2019.

¹²Ўзбекистон шаҳарларининг энг янги тарихи: ислохотлар ва модернизация жараёнлари. –Т., 2016; Ўзбекистонда замонавий шаҳар маданияти. –Тошкент: Yangi nashr; Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида.–Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2002; Урбанизационные процессы в Узбекистане: история и современность. Материалы Международной научно-практической конференции. –Ташкент, 30-31 марта 2007 года.

uning rivojlanishi bosqichlari va o'ziga xos jihatlarini o'rganish;

mustaqillik yillarida shaharda ta'lim tizimi, madaniyat va san'at muassasalarining faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish;

Termiz shahrining ma'muriy-hududiy tuzilishidagi o'zgarishlarni va aholi dinamikasini yoritish;

shaharda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish uchun sayyohlik infratuzilmasining tashkil etilishi va muammolarini tahlil etish;

o'rganilgan masalalar yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish hamda zarur taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Termizda urbanizatsion jarayonlarning tarixiy bosqichlari va uning mustaqillik yillarida rivojlanishi xususiyatlari belgilangan.

Tadqiqot predmetini shahar ma'muriy-hududiy tuzilishi, aholi dinamikasi, iqtisodi, shahar infratuzilmasi, amalga oshirilgan qurilish ishlari, ijtimoiy-madaniy muassasalar faoliyatini o'rganish darajasi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, qiyosiy, statistik va dinamik tahlil, fanlararo yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qadimdan buyuk yo'llar chorrahasidagi muhim iqtisodiy, ma'muriy, savdo va madaniyat markazlaridan biri bo'lib kelgan Termiz shahri mustaqillik yillarida aglomeratsiya, ichki migratsiya va demografik jarayonlar ta'sirida respublikadagi urbanizatsiya o'choqlaridan biri bo'lib qolganligi asoslangan;

mustaqillikning ilk yillarida Termiz shahridagi sanoat korxonalari qiyinchiliklarga qaramay o'z ishini davom ettirganligi, XXI asrdan boshlab shahar iqtisodiyotida yuksalish davri boshlanganligi aniqlangan;

Termiz shahridagi ijtimoiy obektlarning zamon talablari asosida modernizatsiya qilinayotganligi, shaharni intensiv rivojlantirish dasturlari natijasida sog'liqni saqlash va ta'lim sifatini oshirishga, aholi bandligini ta'minlashga, turizm sohasini rivojlantirishga imkon berganligi dalillangan;

Hakim Termiziyning "ideal shahar" haqida yozgan birinchi musulmon mutafakkiri ekanligi, Termizda "aqli shahar" g'oyalari hozirda hudud rekonstruksiyasida joriy qilinayotganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tarixiy va fanlararo yondashuvlar asosida urbanizatsiya jarayonlarining kengayishi va chuqurlashuvi oqibatida shakllangan "urbanistik jamiyat" shakl-shamoillari, asosiy yo'nalishlari va istiqbollari aniqlangan. Ulardan urbanizatsiya jarayonlarini o'rganishda va tahlil qilishda, mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan kelajakdagi tadqiqotlarda foydalanish mumkin;

Markaziy Osiyodagi urbanizatsiya jarayonlarida Termizning o'rni va ahamiyati, shahar taraqqiyotining dinamikasi borasidagi ma'lumotlar mukammal Termiz tarixini yaratishga xizmat qiladi;

keng turdagi manbalar asosida Termizning iqtisodiy sohasi dinamikasi, madaniy-gumanitar yo'nalishlar taraqqiyoti va muammolari tahlil qilinib, ular asosida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish va o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlar berilgan;

O‘zbekistonda zamonaviy shahar madaniyatiga oid monografiyalar yaratishda, tarix, siyosatshunoslik, geografiya va boshqa mutaxassisliklar bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun maxsus kurslar ishlab chiqishda, tadqiqot natijalari muhim ahamiyatga ega;

Termiz shahar boshqaruvi idora va tashkilotlari uchun taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Dissertatsiya Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashini va boshqa tashkilotlarni ma’lumotlar bilan ta’minlashda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda zamonaviy tarix fanida e’tirof etilgan yondashuv va usullar qo‘llanilganligi, ko‘p turdagi tarixiy adabiyotlar hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar vakillarining tadqiqotlaridan foydalanilganligi, Termiz shahar ravnaqiga oid normativ hujjatlar hamda arxiv materiallari kabi birlamchi manbalarga asoslanilganligi, shu asosda tegishli xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda tadqiqot jarayonida olingan natijalarning vakolatli davlat muassasalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ulardan Termizda shahar madaniyatining qadimdan to bugungi kungacha bo‘lgan tarixiga oid ilmiy izlanishlar olib borishda muhim tadqiqot manbai sifatida foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, keltirilgan materiallar va xulosalar Termiz shahrining mustaqillik yillari tarixi bo‘yicha ilmiy ishlar yaratishda, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimidagi o‘quv muassasalarining ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarida zamonaviy shaharlar tarixi bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish hamda darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Termiz mustaqillik yillarida: islohotlar, muammolar, natijalar mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar quyidagicha joriy etilgan:

Hakim Termiziyning “ideal shahar” haqida yozgan birinchi musulmon mutafakkiri ekanligi, Termizda “aqli shahar”ning ayrim qismlari hozirda hudud rekonstruksiyasida joriy qilinayotganligi hamda mustaqillikning ilk yillarida Termiz shahridagi sanoat korxonalari qiyinchiliklarga qaramay o‘z ishini davom ettirganligi, XXI asrdan boshlab shahar iqtisodiyotida yuksalish davri boshlanganligi, xususidagi yangiliklardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining “Uchinchi Renessans –yoshlar nigohida”, “Milliy davlatchiligimiz tarixi”, “Buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini o‘rganish, ularning insonparvarlik g‘oyalarini hayotga keng tatbiq etish”, “Termiziy allomalar merosini o‘rganishning dolzarb masalalari” mavzulariga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbirlarda, keng jamoatchilik o‘rtasida uyushtirilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarida foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2021-yil 24-dekabrda 02-02-1749-son ma’lumotnomasi). Natijada ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

qadimdan buyuk yo‘llar chorrahasidagi muhim iqtisodiy, ma’muriy, savdo va madaniyat markazlaridan biri bo‘lib kelgan Termiz shahri mustaqillik yillarida aglomeratsiya, ichki migratsiya va demografik jarayonlar ta’sirida respublikadagi

urbanizatsiya o'choqlaridan biri bo'lib qolganligi xususidagi yangilikdan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining targ'ibot-tashviqot ishlari faoliyatida foydalanilgan (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2021-yil 22-dekabrda 01-07-189-son ma'lumotnomasi). Natijada ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarida foydalanish maqsadida zarur darsliklar va o'quv qo'llanmalar, ommabop nashrlar, ilmiy-amaliy tavsiyalar tayyorlash, ajdodlarimizning ma'naviy merosidagi ezgu g'oya va ta'limotlarni keng xalq ommasiga yetkazish va shu asosda yoshlarda sog'lom dunyoqarashni kuchaytirish imkoniyati yaratilgan;

Termiz shahridagi ijtimoiy obektlarning zamon talablari asosida modernizatsiya qilinayotganligi, shaharni intensiv rivojlantirish dasturlari natijasida sog'liqni saqlash va ta'lim sifatini oshirishga, aholi bandligini ta'minlashga, turizm sohasini rivojlantirishga imkon berganligi xususidagi taklifdan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2021-yil 20-dekabrda 01-40-1808-son ma'lumotnomasi). Natijada Termiz shahri va unga yondosh hududlarning mustaqillik yillaridagi rivojlanishi natijasida shakllangan aglomeratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayoti, transport, turizm, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining ravnaqi bilan bog'liq jarayonlarni to'laqonli yoritish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya yuzasidan jami 15 ta ish e'lon qilingan. Jumladan, tadqiqotning asosiy mazmuni, xulosa va natijalari dissertant tomonidan e'lon qilingan OAK jurnallarida 6 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola, xalqaro anjumanlar to'plamlarida 4 ta, respublika ilmiy anjumanlarida 3 ta maqolada o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yhatidan hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan; tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi va tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Markaziy Osiyoda urbanizatsiya va shahar madaniyati shakllanishining tarixiy bosqichlari**" deb nomlanadi. Uning birinchi paragrafida zamonaviy yondoshuvlar asosida urbanizatsiya jarayonlarining nazariy-metodologik tahlili amalga oshirilgan.

Jamiyat taraqqiyotida shaharlar ahamiyatining oshish jarayoni-urbanizatsiyaning asosini shaharlardagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'zgarishlar

tashkil etadi. O‘zbekistonda urbanizatsiya tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega.

XX asrda shaharlar rivojlanishi jadallashib, uning muammolari XXI asr boshlariga kelib urbanizatsiya jarayoni qarama-qarshiliklarni, manfaatlar to‘qnashuvini, ilgari kun tartibida bo‘lmagan muammolarni keltirib chiqardiki, ularni har tomonlama tahlil etish talab etiladi. Urbanizatsiya shunday yangi global muammoga aylanmoqdaki, o‘zining yashirin tahdidlari bilan hatto ekologik muammolardan ham o‘tib tushishi mumkin. Ayniqsa urbanizatsiya XX asr oxiridan Markaziy Osiyo davlatlarida jamiyatda yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar, aholining kuchli mulkiy tabaqalanishi, demografik inqiroz, mafkuraviy bo‘shliq sharoitida ziddiyatli kechmoqda¹³. Shuning uchun ham urbanizatsiya muammolari O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biriga aylandi¹⁴.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi g‘arb olimlarining asarlarida ilmiy muomalaga “urbanizatsiya” tushunchasi kiritilib, uning nazariy-metodologik asoslari shakllandi. Dissertatsiyada G‘arb ijtimoiy-falsafiy an‘anasida urbanizatsiyani o‘rganish borasida yetakchi olimlarning urbanizatsiyaning shakllanish bosqichlari, rivojlanish xususiyatlari, istiqbollari borasidagi qarashlari tahlil etilgan¹⁵. Ularga asoslanib G‘arb urbanistik madaniyatining ijobiy va salbiy holatlari haqida xulosa qilinadi. Hozirgi dunyoda shaharlar o‘sishi jarayonining miqyosini, sabablarini, dinamikasini, oqibatlarini aniqlash uchun, G‘arb va Sharq madaniyatlariga tegishli, SSSR hududidagi shaharlarning xususiyatlarini aniqlash asosida har bir makonga xos bo‘lgan yutuqlar, muammolar va istiqbollarni ko‘rsatib berish lozim.

Birinchi bobning **“Termizda shahar madaniyati shakllanishining tarixiy bosqichlari”** nomli ikkinchi paragrafida Markaziy Osiyodagi urbanizatsiya jarayonlarida shahar madaniyati rivojlanishining tarixiy bosqichlari tahlil qilingan.

Termiz-Surxondaryo viloyatining markazi, O‘zbekistonning qadimiy shaharlaridan biridir. U Markaziy Osiyoning shakllanishi va taraqqiyoti jarayonida turli joylarga ko‘chib yuruvchi shaharlari jumlasiga kiradi. Binobarin, Termiz deganda turli qismlari Amudaryo va Surxondaryo oralig‘idagi, shimolda Kattaqum bilan chegaralangan uchburchak shakldagi keng hududga yoyilgan qurama shaharni tushunish kerak. Bunday quramalik Markaziy Osiyo shaharlarining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, ular urushlar, iqtisodiy inqiroz tufayli yoki suv tanqisligi oqibatida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishgan¹⁶.

Arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra, miloddan avvalgi I ming yillikning o‘rtalarida Termiz shahri shakllanadi. O‘sha davrda Shimoliy Baqtriyada tog‘ oldi

¹³Урбанизация в Центральной Азии: вызовы, проблемы и перспективы. Аналитический доклад 2013 года. Ташкент, 2013. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана / О. Ата-Мирзаев, В. Гентшке, Р.Муртазаева, А. Салиев; -Т.: Университет, 2002.-С125. Абдалова З. Т. Особенности процесса урбанизации в Республике Узбекистан // Наука без границ. 2019. № 4(32).-С. 63-67. Урбанизационные процессы в Узбекистане: история и современность. Материалы Международной научно-практической конференции. Ч.1. – Т., 2007. Ўзбекистонда замонавий шаҳар маданияти/ Д.Зияева таҳр. ост. – Т., 2017.–Б.286.

¹⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 yanvardagi «Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-5623-son Farmoni.

¹⁵Вебер М. Город // Вебер М. Избранное. Образ общества. М.: Юрист, 1994. С.309-446. City invincible: A Symposium on urbanisation and cultural development in the Ancient Near East. Chicago, 1960; Mumford L. The city in history. N.Y.: Harvest Book Harcourt Inc., 1989; Mumford L. The culture of the cities. Westport, Connecticut: Greenwood Press Reprint, 1981.

¹⁶Ртвеладзе Э.В. Термиз ва унинг Ўрта Осиё тарихидаги ўрни. Термиз. Термиз. Буюк йўллар чоррахасидаги кўҳна ва янги шаҳар. Т.: Шарқ, 2001. –Б. 9.

mintaqasining aholisi katta daryolarning vodiylariga ko'cha boshladilar. Natijada Amudaryo bo'ylarida aholi manzilgohlari ko'paydi¹⁷. Ulardan biri, daryo sohilidagi tabiiy qumloq tepalikda, bo'lajak shaharning o'rnida paydo bo'lgan. Aholi maskani yiriklashgani sari Amudaryoning ikki sohili o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar kengayib borgan, kechuvning ahamiyati o'sgan sari, bu omil uning hayotida belgilovchi bo'lib qolgan. Shu tariqa Termiz o'z tarixining dastlabki davrlaridanoq muhim Amudaryo kechuvini, xalqaro savdo yo'lini qo'riqlovchi qal'a vazifasini o'tay boshladi. Buyuk Ipak yo'lining shakllanishi bilan Termiz uning tarkibidagi muhim zanjirga aylanadi¹⁸.

Mo'g'ullar istilosi natijasida shahar hayoti vaqtincha barham topib, vayron bo'lgan Termiz XIII asr mobaynida yangi joyda tiklandi. XIV-XV asrlar shahar hayotining eng yuksak davri bo'ldi. Amir Temur va uning avlodlari davrida Markaziy Osiyo, mintaqa tarixi tadqiqotchilari ta'kidlaganidek, taraqqiyotining eng yuqori bosqichini boshdan kechiradi. Termiziyalar esa Temuriylar davlatining siyosiy-g'oyaviy tayanchlaridan biriga aylanishdi¹⁹.

Shayboniylar davrida Termiz Qo'ng'iroq ulusining markaziga aylandi. XVIII asrning o'rtalarida Termiz o'zaro urushlardan inqirozga uchrab, Eron istilosi natijasida tanazzulga yuz tutadi. Shaharning faqatgina bir tarixiy qismi bo'lgan Salavotda odamlar yashab qoladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida mintaqa Rossiya va Britaniyaning o'rtasidagi raqobat maydoniga aylanadi. Rossiya Afg'oniston orqali Hindistonga yurish rejalari asosida Termizni "harbiy shaharchaga", o'zining forpostiga aylantirdi²⁰. XIX asrning oxirlaridan Markaziy Osiyoda urbanizatsiyaning yangi bosqichi boshlanadi. XIX asrning oxirlaridan Markaziy Osiyoda urbanizatsiyaning yangi bosqichi boshlanadi. O'zbekistonning boshqa shaharlari kabi Termizda ham shahar hayoti rivojlana boshladi.

Mustaqillik yillarida Termiz, o'tmishdagi barcha sinovlar va iztiroblarga qaramay, o'zining an'naviy ahamiyatini saqlab qolib, o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Termiz rivojlanayotgan sanoat va qishloq xo'jaligi hududining-Surxondaryo viloyatining madaniy va ta'lim markaziga aylandi. 2014-yilda Termiz shahri mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalarda erishgan muvaffaqiyatlari uchun Amir Temur ordeni bilan mukofotlandi²¹. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar Termiz oldida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda, shahar iqtisodiyot va transport borasida mintaqalararo strategik

¹⁷Шайдуллаев Ш.Б. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. Т.: А.Қодирий халқ мероси номидаги нашриёти. 2000. –С.46.

¹⁸Мирзаев Дж.З. Город на перекрестке великих дорог: история, идеология и культура. «История и современность Великого Шелкового пути: социально-культурные, исторические, политические и экономические аспекты развития». Материалы научной конференции. –Т., 2013.-С.197-201.

¹⁹Жалолитдин Мирзо. Амир Темур ва темурийлар даврида Термиз. Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 2004. № 3, .–Б 113-117.

²⁰Мирзаев Дж.З. Военные конфликты в Афганистане: Термезский плацдарм. Сборник докладов международной научно-практической конференции «Слинские чтения» памяти профессора М.Ф. Слинкина. Симферополь, 2013.-С. 18-20.

²¹Termiz shahrini "Amir Temur" ordeni bilan mukofotlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-4645-son, 22.08.2014-yil. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2014 y., 8-son, 226-modda.

platformaga aylanmoqda²².

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Termiz ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar jarayonida: natijalar, muammolar, istiqbol**” deb nomlanadi. Uning birinchi paragrafi mustaqillik yillarida Termizda shahar iqtisodiyotining rivojlanishi masalalariga bag‘ishlangan.

Sovetlar davrida O‘zbekistonning sanoat taraqqiyoti jihatidan eng kam rivojlangan viloyati bu Surxondaryo edi²³. Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy qiyinchiliklar bo‘ldi, chunki sobiq Ittifoq davridagi aloqalar uzilgach, ta‘minot izdan chiqdi. Ko‘pgina korxonalarda ehtiyot qismlar, asbob-uskunalar, yetishmasligidan muammolar yuz berdi. Masalan, 1993-yilga kelib Termizdagi yetakchi g‘isht zavodi, paxta tozalash zavodi, go‘sht va baliqchilik kombinatlari kabi 9ta yetakchi sanoat korxonasi ishlab chiqarish hajmini kamaytirib yubordi, natijada xalq xo‘jaligiga 391 mln. so‘mlik sanoat mahsuloti yetkazilmadi²⁴. 1991-yildan ijtimoiy yo‘nalishga ega bo‘lgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish maqsadida davlat korxonalarini xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlariga aylantirish jarayoni boshlandi. Masalan, Termizda, shahrining muhim korxonalaridan biri bo‘lgan non kombinati 1995-yilda ochiq turdagi “Termiz non” hissadorlik jamiyatiga aylantirildi²⁵. Xususiylashtirish jarayoni mustaqillik yillarida izchillik bilan davom ettirildi.

Mustaqillik yillarida Termizda sanoatning turli sohalarini rivojlantirishga e‘tibor qaratilib, shahar ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish markazlaridan biriga aylandi. Xususan, shaharda yengil sanoat korxonalaridan pillakashlik, shoyi to‘qish, trikotaj, tikuvchilik, mebel sohalari faoliyat ko‘rsatdi. Termizda kichik va o‘rta biznes korxonalari tashkil etilib, ularda sanoat mahsulotlari, xalq ehtiyoji mollari, aholiga turli xil xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Shahar yalpi hududiy mahsulotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 75,3 foizni tashkil etadi. Mehnat bilan band aholining 80 foizdan ziyodi shu yo‘nalishda ish yuritadi. Termizda 2021-yilda kichik biznes subyektlarini yangidan tashkil etish hamda yangi loyihalarni ishga tushirish hisobiga chakana savdo aylanma hajmini 2 trln 881,5 mlrd so‘mga o‘shirish suratini 103 foizga yetkazildi²⁶. Sanoat sohasida 2019-yilda ishlab chiqarish hajmi 756,2 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa²⁷, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 1 trln 55 mlrd so‘mni tashkil etdi²⁸, 2021-yil yakuni bilan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmi 1 trln. 293 milliaod so‘mga mlrd so‘mni tashkil etib, 114,8 foizga o‘shirishga erishildi. 2021-yilda yalpi mahsulot aholi jon boshiga nisbati 6 mln. 580 ming so‘mga yetdi, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 5 mln. 946 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilda esa

²²Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Марказий ва Жанубий Осиё: минтақавий боғлиқлик, таҳдидлар ва имкониятлар” мавзусидаги халқаро конференциядаги нутқи. Янги Ўзбекистон 2021 йил 17 июль №145.

²³Ўроқова Н.С. Ўзбекистонда мустақиллик даврида саноат соҳасидаги ислохотлар ва ўзгаришлар жараёни (жанубий вилоятлар мисолида). Тарих.фан. ном. дисс.-Т.: ЎЗМУ, 2004.–Б.22.

²⁴Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 1091-fond. 1-ro‘yxat, 191-ish, 70 - varaq.

²⁵Сурхондарё вилоят хусусийлаштириш қўмитасининг 154-сонли қарори. Термиз шаҳар ҳокимлиги жорий архиви, 2-баённома 1995 йил, 4 апрель, 3-варақ.

²⁶Термиз шаҳрида 2021 йилда амалга оширилган ва 2022 йилда режалаштирилган ислохотлар юзасидан шаҳар ҳокими мурожаати. Термиз шаҳар ҳокимлиги жорий архиви.

²⁷Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi–2020-yil yanvar-dekabr. Termiz-2021-yil. 23b.

²⁸Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi 2020-yil yanvar-dekabr. Termiz-2021.-B 26.

5 mln. 656 ming soʻmni tashkil qilar edi. Termizning sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarish hajmining Surxondaryodagi ulushi 19,7 foizni tashkil qilib, viloyatda birinchi oʻrinda turadi, 2019-yilda bu koʻrsatkich 18,8 foizni tashkil qilib, viloyatda ikkinchi oʻrini egallagan. 2022-yilda qiymati 121,8 mld. soʻmlik 27 ta yangi loyihalarni ishga tushirish hisobiga sanoat mahsulotlarimiz hajmini 1 trillion 293 mld. soʻmga, oʻsish suratini esa 114,0 foizga hamda aholi jon boshiga 8 mln. 341 ming soʻmga yetkazishni rejalashtirilgan²⁹. Isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Surxondaryo viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga toʻgʻri kelib 22,4 % tashkil etadi³⁰. 2022-yilda Termizda kichik sanoat zonalarini tashkil etish orqali, umumiy qiymati 39.6 mld. soʻmlik 22 ta loyihani amalga oshirib, sanoat mahsulotlar ishlab chiqarilishini kengaytirish rejalashtirilgan.

Ikkinchi bobning navbatdagi paragrafida mustaqillik yillarida shaharda amalga oshirilgan qurilishga oid maʼlumotlar tahlil qilingan. Termizda sovet davrida butun mamlakatda boʻlgani kabi turar joy uchun asosan “xrushevka” nomini olgan koʻpqavatli panelli uylarning qurilishi amalga oshirildi³¹. Ijtimoiy obyektlar va turar joy obʼyektlari katta kamchiliklar bilan bunyod etilar edi³². 1977-yilda ishlab chiqilgan qabul qilingan, 1979-yilda qabul qilingan³³, 1982-yil tahrir etilgan Termiz shahrining 2010-yilgacha rivojlanishi rejasi bajarilmay qoldi. Termizning sovet davridagi maqomi “harbiy shahar” nuqtayi nazaridan kelib chiqqan edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ham oʻsha anʼana asosida, hattoki obodonlashtirish ishlari ham harbiylar bilan birgalikda olib borilar edi³⁴.

Qurilish sohasidagi keskin burilish 2001-yilda amalga oshirilib, Termiz shahrida Arxeologiya muzeyi, Amfiteatr, temir yoʻl vokzali, tadbirkorlar markazi, istirohat bogʻlari kabi jami 67 obʼyekt foydalanishga topshirildi. 2001-yilda 39,7 mlrd soʻmlik mablagʻlar oʻzlashtirildi. Termiz shahrining 2500 yillik yubileyiga tayyorgarlik koʻrish va boshqa obyektlar qurilishiga 11 mlrd. 433 mln. soʻmlik mablagʻ sarflandi³⁵. Termiz shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining asosini Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 17-iyulda “2035-yil davrigacha Termiz shahrining Bosh rejasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 195-sonli qarori tashkil etadi. Qisqa fursatda shahar Bosh rejasining qayta koʻrib chiqilishi hozirgi shiddat bilan kechayotgan jarayonlarda Termizni kompleks rivojlanishini belgilab beradigan talablarning tubdan oʻzgarishidan kelib chiqdi³⁶. Qurilish sohasidagi yangi davrning boshlanishi bilan tizimdagi muammolarni aniqlash, ularning yechimini topish borasida 2021-yilgacha qurilish sohasi muammolarni tubdan isloh qiluvchi 40 ga yaqin qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi.

2020-yilda qurilish va pudrat ishlari hajmi 1 trln. 199 mld. soʻmga bajarilib, 112,6 foizga oʻsdi. Shaharning qurilish sohasidagi viloyatdagi ulushi 28,1 foizga,

²⁹Termiz shahrida 2021-yilda amalga oshirilgan va 2022-yilda rejalashtirilgan islohotlar yuzasidan shahar hokimi murojaati.

³⁰Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi 2020-yil yanvar-dekabr. Termiz–2021.-B 21.

³¹Surxondaryo viloyat OKSining soboq rahbari Abdumanon Zokirov axboroti.

³²Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 17 –fond. 3 – roʻyxat, 2337 – ish, 14 - varaq

³³Postonovlenie Soveta ministrov UzSSR ot 27.12.1979 goda №865.

³⁴Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 1092 –fond. 1 – roʻyxat, 192 – ish, 1 - varaq.

³⁵Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 1091 –fond. 1 – roʻyxat, 1084 – ish, 32 - varaq.

³⁶Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2015 г., № 29, С. 381.

aholi jon boshiga 6940,0 ming soʻmga yetishiga erishildi. 2020-yilda Termizda ishga tushirilgan turar joylar 82,2 ming kv. metrni tashkil etdi³⁷ 2021-yilda qurilgan 20 ta koʻp qavatli uy-joylar hamda yangidan qurilayotgan loyihalarni ishga tushirish hisobiga sohada bajariladigan ishlar hajmi 1 trn. 382,8 mld. soʻmni tashkil etdi³⁸. 2018-2020-yillarda 1 ming 218 xonadonli 29 ta 7 qavatli hamda 1 ming 110 oilaga moʻljallangan 66 ta 3 va 4 qavatli arzonlashtirilgan uy-joylar qurildi. Harbiy soha xizmatchilari uchun 510 xonadonli 4 va 5 qavatli 17 ta uy bunyod etildi. 2022-yilda 1 ming 170 xonadonga moʻljallangan 32 ta koʻp qavatli arzonlashtirilgan turar-joy binosi qurilishi yakunlanadi³⁹. 2021-yil ham bu boradagi ishlar davom ettirilib, shaharda 48 ta 4, 5, 7 va 9 qavatli 1 ming 650 xonadonli uy-joylar qad rostlaydi. 2021-yilda chet ellik hamkorlar bilan 16 qavatli uylar qurilishi boshlandi⁴⁰. Termiz shahrida 2021-yilga kelib jami obektlar soni 47482 ta boʻlib, shundan yakka tartibda qurilgan uy-joylar va bir qavatli xususiy xonadonlar 22663 tani, koʻp qavatli uylardagi xonadonlar 20345 tani, koʻp qavatli uylarning birinchi qavatidagi noturar joylar 1196 tani, alohida qurilgan noturar joylar 3205 tani tashkil etadi⁴¹.

Termiz shahrining bosh rejasiga koʻra shahar aholisi 2020-yilda 155 mingdan 2035-yilda 195 ming kishiga, shahar maydoni 2.780 gektardan 4.342 gektarga yetkazish rejalashtirilgan. Uy-joy fondi 2247,5 ming kv. metrdan 3511,0 ming kv. metrga yetkazilishi lozim. Bir kishi hozirda 14,5 kv.metr bilan taʼmingan boʻlsa, 2035-yilda bu koʻrsatgich 18,0 kv. metrga yetishi kerak. Buni taʼminlash uchun Termizda koʻpqavatli uylarda joylashgan xonadonlar soni koʻpaytirilishi rejalashtirilgan. Bir qavatli shaxsiy uylar 118594 ming kv. metrdan 117124 ming kv. metrga, uy-joy fondining 52,8 % dan 33,37 % ga tushirish koʻzda tutiladi. Koʻp qavatli uylar uy-joy fondining hozirda 30% tashkil etsa, 2035-yilga kelib bu koʻrsatgich 50% yetishi lozim⁴².

Ikkinchi bobning **“Termiz shahar aglomeratsiyasining shakllanishi”** nomli uchunchi paragrafda hozirgi davrda shahar aglomeratsiyasi masalalari va Termiz shahrining Surxondaryo viloyatda tutgan oʻrni tadqiq qilingan.

Jamiyat taraqqiyotining jadal rivojlanishi davrida shaharlar va ularning murakkab hududiy tizimlari–aglomeratsiyalar aholi va ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etishning eng qulay namunasi sifatida faoliyat yuritmoqda. Aglomeratsiya [lot. agglomerare–qoʻshish, yigʻish]–shahar va uning atrofidagi aholi yashash joylarining bir-birlariga qoʻshilib, katta shaharga aylanish jarayonidir. Hozirgi vaqtda Oʻzbekistonda jami shaharlar soni 120 tani tashkil etib, aholi soni 100 mingdan ortgan yirik shaharlar soni 17 taga yetdi⁴³. Yirik shaharlarda jami aholining 20 foizi, shahar aholisining 45 foizi mujassamlangan. Mamlakat sanoat ishlab chiqarishining 53 foizi, xalq isteʼmol mahsulotlarining 55, pullik xizmatlarning

³⁷Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi 2020-yil yanvar-dekabr. Termiz – 2021-B 52.

³⁸Termiz shahrida 2021-yilda amalga oshirilgan va 2022-yilda rejalashtirilgan islohotlar yuzasidan shahar hokimi I.B.Xudoyberdievning axboroti.

³⁹https://uza.uz/uz/posts/termiz-shahar-hokimi-xalqqa-murozhaat-etdi_193245

⁴⁰Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi 2021-yil yanvar-iyun. Termiz – 2021-B 43.

⁴¹Davlat kadastrlar palatasi Termiz shahar filiali boshligʻi Sh.S.Toʻrayevning axboroti.

⁴²Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2015 г., № 29, С. 381. <https://lex.uz/docs/2705046>

⁴³Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике.Основные демографические показатели. <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/demography>

52 foizi katta va yirik shaharlar hissasiga to'g'ri keladi⁴⁴. Dissertatsiyada viloyatni boshqaruvchi ma'muriy markaz asosida shahar aglomeratsiyasining vujudga kelishini Termiz shahar aglomeratsiyasi misolida yoritilgan.

Mustaqillikning dastlabgi yillarida shahar aholisi tabiiy o'sish hisobiga ko'paydi. Hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, boshqa hududlarga nisbatan, Surxondaryodagi oilalarning ko'pchiligi ko'p sonlidir. Hozirgi davrda xalqaro ko'rsatgichlarga binoan oila a'zolarining miqdoriga ko'ra, kichik oilalar 24 kishidan, o'rta oilalar 5-6 kishidan, katta oilalar 7 va undan ortiq kishidan iborat hisoblanadi. Mustaqillik arafasida O'zbekistonda 1979-1989-yillar davomida har bir oilada o'rtacha 5,5 kishi bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Surxondaryo shaharlarida 6,6 qishloq joylarida 7,1 kishiga to'g'ri keldi. Surxondaryo viloyati umumiy urbanizatsiya ko'rsatkichi O'zbekiston Respublikasida eng past darajada bo'lgan⁴⁵.

2021-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra Termiz shahrida 182,9 ming kishi yashaydi⁴⁶. Viloyatning markazi Termiz shahri aholisi tabiiy o'sish va migratsiya jarayonlari hisobiga ko'paydi. Bu ikki omil shahar chegarasining kengayishiga olib keldi. Hozirgi davr sharoiti ideal shaklga ega emas: qishloq ishchi kuchini sig'dira olmaydi, Termiz esa uni qabul qilishga to'liq tayyor emas. Ishchilarni ish bilan ta'minlovchi korxonalarining ko'payishi bilan bir qatorda xizmat ko'rsatish sohalari rivoji ham katta ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda aholining 60-70 foizi ushbu sohalarda xizmat qiladi. Shaharda asosiy mezon bo'lib hisoblanadigan mazkur sohada Termizda bu ko'rsatkich 10-15% ni tashkil qiladi⁴⁷. Xizmatlar sohasida keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, agar bu sohada 2020-yilda 2 trn. 319,6 mlrd so'mga 104,3 foizga bajarilgan bo'lsa, 2021-yilda xizmatlar hajmi 2 trn. 870,9 mld. so'mga, 126,0% foizga bajarildi⁴⁸.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-mayda PQ-4702-son "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida" gi qaroriga muvofiq statistik ko'rsatkichlar va so'rovnomalar natijalari asosida hududlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi joriy etildi⁴⁹. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra Termiz shahri iqtisodiy rivojlanish va samaradorlik ko'rsatkichlari, mehnat bozorining samaradorligi ko'rsatkichlari, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va diversifikatsiyasi ko'rsatkichlari bo'yicha Surxondaryo viloyatida eng yuqori bahoga ega. Ayni vaqtda, ishbilarmonlik muhiti va tadbirkorlikni rivojlantirish sifat ko'rsatkichlari, mahalliy soliqlarning yig'uvchanlik ko'rsatkichlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining fuqarolar murojaatlari bilan ishlash samaradorligi va ma'lumotlarning ochiqligi bo'yicha Termiz shahri viloyatda orqada qolmoqda⁵⁰.

⁴⁴Tashtaeva S.K. Йирик шаҳарлар ва уларнинг район ҳосил қилувчи роли. Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 46-жилд. Илмий мақолалар тўплами. –Т., 2015 йил.–Б.151-152.

⁴⁵Солиев А., М.Назаров. Ўзбекистон қишлоқлари (Қишлоқ жойлар географияси). –Т.: "Fan va texnologiya", 2009.-Б 50.

⁴⁶ Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi 2020-yil yanvar-dekabr. Termiz-2021-B131.

⁴⁷ Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi 2020-yil yanvar-dekabr. Termiz-2021-B 76.

⁴⁸ Termiz shahrida 2021 yilda amalga oshirilgan va 2022-yilda rejalashtirilgan islohotlar yuzasidan shahar hokimi I.B.Xudoyberdiyevning axboroti.

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-mayda PQ-4702-son "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida" gi qarori. <https://lex.uz/docs/4803531>

⁵⁰ "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020.-B185.

Dissertatsiyaning “**Termiz ijtimoiy-maishiy va madaniy yuksalish davrida: islohatlar va ularning natijalari**», deb nomlangan uchinchi bobining birinchi paragrafida shahar aholisining ijtimoiy-maishiy turmush tarzi sohasidagi islohotlar, ularning muammolari va natijalari ko‘rib chiqilgan. Mustaqillik arafasida ijtimoiy munosabatlardagi qiyinchiliklar nafaqat O‘zbekistonda, balki sobiq SSSRning barcha respublikalarida ko‘zga tashlandi. Mablag‘ yetishmasligi natijasida Sovet Ittifoqi miqyosidagi ko‘pgina rejalashtirilgan ishlar amalga oshirilmay qolar edi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1990-yilgi 275-sonli “Aholini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta‘minlashni yaxshilash” to‘g‘risidagi qarori bajarilmadi. Istiqloq arafasida bu odatiy holga aylangan edi⁵¹.

